

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995 yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

1-2023

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

| | |
|--|-----|
| Sh.Yodgorov | |
| Misrning mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlash siyosatida diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurash xususiyatlari..... | 551 |
| Sh.Latipov | |
| Autentik matnda lakunalarning ifodalanishi | 548 |
| M.Baybaeva, I.Imomov | |
| Talabalarning nizoli xulq atvorini pedagogik tashxis etishning sinergetik tuzilmali modeli..... | 551 |
| F.Temirov | |
| Sadriddin Ayniy ijodida Turkiston tarixi masalalari..... | 555 |
| X.Qodirov, N.Abdullajonova | |
| Hamkorlik pedagogikasining insonparvarlik hususiyatlarini shakllantirishdagi ahamiyati | 560 |
| M.A.Abdumalikova | |
| “Ming Bir Kecha” - sharq xalqlari ijodining ajoyib durdonasi | 564 |
| M.A.Fayzullaeva | |
| Ta'lim klasteri sharoitida ta'lim jarayonini raqamli texnologiyalar asosida tashkil qilish va rivojlantirishning ilmiy tahlili | 567 |
| B.Abdullayev | |
| Farg'ona vodiysi so'ngi Bronza va ilk temir davrida..... | 572 |
| S.M.Isroilova | |
| Oliy o'quv yurtlari talabalarida etakchilik fazilatlarini shakllantirish..... | 586 |
| Sh.Sh.Qosimova, M.M.Darmanov | |
| In vitro texnologiyasi asosida maxalliy uzum navlarini ko'paytirish. | 589 |
| D.R.Uralov | |
| Tog'ay Murod qissa va romanlarini o'qitishning hozirgi kundagi dolzarb jihatlari | 593 |
| M.F.Nishonov, O.M.Umarova | |
| <i>Chicorium intybus L.</i> o'simligining elementlar tarkibi va miqdorini o'rganish. | 598 |
| E.X.Bozorov, A.N.Jo'liiyev | |
| Neytronlar fizikasi fani ma'ruzlarini o'qitishda “Venn diagrammasi” usulidan foydalanish | 602 |
| M.M.Bokiyev, I.R.Asqarov | |
| Ateroskleroz kasalligini davolashda ayrim sintetik dorilar va yerqalampirni ahamiyati | 606 |
| R.A.Abdukarimova | |
| Oilaning ijtimoiylashuvida tadbirkorlik ko'nikmalarini rivojlantirishning falsafiy mohiyati | 609 |

**TOG'AY MUROD QISSA VA ROMANLARINI O'QITISHNING HOZIRGI KUNDAGI
DOLZARB JIHLARI****АКТУАЛЬНЫЕ АСПЕКТЫ ПРЕПОДАВАНИЯ РАССКАЗОВ И РОМАНОВ ТОГАЯ
МУРАДА****CURRENT ASPECTS OF TEACHING STORIES AND NOVELS OF TOGAY MURAD****Uralov Doston Rustamaliyevich¹****¹Uralov Doston Rustamaliyevich**

– Farg'ona davlat universiteti o'qituvchi

Annotatsiya

Bilamizki, mustaqil O'zbekistonimiz mana shunday quvonchli kunlarga erishish uchun o'ziga yarasha to'siqlardan o'tgan. Bosib o'tgan to'siqlar davrida yurtimizda yashayotgan insonlarni, eski tuzumdan yangi tuzumga nisbatan kayfiyati, ularni o'sha vaqtdagi g'oyalari va keyinchalik sodir bo'lgan ijobiy o'zgarishlarga nisbatan bo'lgan munosabatlari hozirgi vaqtda ham dolzarb xulosaviy jarayonlardan biridir. Shu nuqtayi nazardan O'zbekiston xalq yozuvchisi Tog'ay Murod asarlarining hozirgi vaqtda ham bo'layotgan o'zgarishlarga nisbatan to'laqonli obyektiv fikr yuritish uchun foydali hisoblanadi. Maqolada Tog'ay Murod asarlarining hozirgi shiddat bilan o'zgarayotgan bir zamonda o'ziga yarasha muhimligi bilan alohida o'rin kasb etishi bo'yicha fikr va mulohazalar berilgan.

Аннотация

Мы знаем, что наш независимый Узбекистан прошел через собственные препятствия, чтобы достичь таких счастливых дней. Отношение людей, живущих в нашей стране, в момент преодоления препятствий, их отношение к старому строю к новому строю, их представления в то время и их отношение к позитивным изменениям, произошедшим позже, является одним из релевантных процессов вывода. Даже сейчас. С этой точки зрения полезно объективно подумать об изменениях, происходящих в творчестве народного писателя Узбекистана Тогая Мурада. В статье приводятся мнения и размышления о том, как произведения Тогая Мурада заняли особое место при должной значимости во времена, когда современность стремительно меняется.

Abstract

We know that our independent Uzbekistan went through its own obstacles to reach such happy days. The attitude of the people living in our country at the time of the overcome obstacles, their attitude towards the old system to the new system, their ideas at that time and their attitude towards the positive changes that happened later is one of the relevant conclusion processes even now. From this point of view, it is useful to think objectively about the changes taking place in the works of Togay Murad, the people's writer of Uzbekistan. In the article, opinions and considerations are given on how Togay Murad's works have gained a special place with their due importance in a time when the present is rapidly changing.

Kalit so'zlar: firqa, tarlon, roman, obraz, tuzum, xarakter, qahramon, voqea.

Ключевые слова: группа, рассказ, роман, образ, система, персонаж, герой, событие.

Key words: group, story, novel, image, system, character, hero, event.

KIRISH

Tog'ay Murodning "Bu dunyoda o'lib bo'lmaydi" romani, "Ot kishnagan oqshom" qissasi o'zbek yozuvchilarining eng ajoyib yaratuvchanlik ko'rinishlaridan biridir. "Bu dunyoda o'lib bo'lmaydi" romani hozirgi vaqtda ham o'z dolzarbligi bilan o'quvchilarni o'ziga rom etib kelmoqda. Ushbu romanda yozuvchi sobiq ittifoq davridagi o'zbek xalqini hayotini ochib bergan. Bunda xalqning har qanday qiyinchiliklarni, jumladan, ochlik davrini boshdan o'tkazgani, o'z e'tiqodiga bo'lgan harakatlari va o'shanday zulmatli bir zamonda uchragan to'siqlarni qay yo'sinda yengib o'tganligini ko'rishimiz mumkin. Yozuvchi romanining asosiy qahramoni Botir firqa obrazi orqali o'zbek rahbarlarining qiyofasini ochib berishga uringan va ushbu vazifani to'laqonli ado etgan desak adashmagan bo'lamiz. Botir firqa mana shu lavozimga tayinlangan keyingi o'zi ham bilmagan voqealarga duch kelishi va ularda qo'llagan tadbirlari asli o'sha vaqtdagi siyosiy tuzumning ilojsizlik choralari edi. Botir firqa juda ko'p insonlarga yaxshilik qilishga, o'z diniga sobit turish bilan bir vaqtda zamonga ham moslashishga harkat qildi. Tarixdan bilamizki, 1933-yilda sobiq ittifoqni ayrim hududlarida ocharchilik bilan insonlar qiyin ahvolga tushib qoldi. Ocharchilik O'zbekistonni ham chetlab o'tmadi. Shunday qiyin vaziyatlarda odamlar achinarli, hattoki o'z farzandlarini bitta zog'ora nonga almashadigan kunlarni ham boshlaridan o'tkazishdi. Yozuvchi

Botir firqa rovida shunday qiyin holatlarda ham xalqqa foydasi tegishi bilan ijobiy obrazni kashf etdi. Romanda keladigan ushbu voqeani olaylik, “onalar tasbehdan-tasbehdan tizilib o‘tirdi. Ona bir yo‘lovchiga qo‘l cho‘zdi. – mana shu qizaloqni ola keting, sizga qiz bo‘ladi! – dedi. Bir kulchaga almashaman, bir kulchaga! Ona bir yo‘lovchiga bolasini ko‘rsatdi. – mana shuni zog‘ora nonga almashaman! – dedi. – kaftday zog‘ora non bo‘lsa bo‘ladi! Mazkur yo‘lovchi Botir firqa. U e‘tibor bermadi. Beparvo o‘tdi. Besh o‘n qadam o‘tib oyoq ildi. Boisi ovoz tanish tuyuldi. Ketiga qayrilib qaradi. Ketiga qaytib keldi. Bolasini oldiga olib o‘tirgan ona Mirzaxo‘jaboyni bevasi bo‘ldi. – Izimdan yurilsin! Botir firqa shunday deya yo‘lida odimladi. – Siz Mirzaxo‘jaboyni zaifasi Zaynab.....Zaynab xotinmisiz? – Shunday, shunday. Qizalog‘ingizni oti nima? - Obod. –Obod, Obod.....Mirzaxo‘jaboyni qizimi. – Shunday, Obod....o‘sha kishidan! – Sizni kimni zurriyotini bozorga olib chiqqaningizni bilyapsizmi? Kimsan, Mirzaxo‘jaboyni zurriyoti! Ona miq etmadi ona yerga qaradi” [1, 46]. Shundan so‘ng Botir firqa Zaynab va uning bolasiga non berib turadigan bo‘ldi. Mirzakarimboy eshonlar avlodidan bo‘lgan shaxs edi. Zamonning vaziyatidan kelib qichib Afg‘onistonga qochib ketgan musofirlardan yedi. O‘tgan asrning 30-yillarida bilamizki, dinga nisbatan sobiq ittifoq juda qattiq turgan. Shu munosabat bilan eshonlar domlaldar, mullalarning yashashi qiyin kechgan. Mirzakarimboyning Afg‘onistonga ketib qolishini shu bilan izohlasak bo‘ladi. Romanning asosiy qahramoni esa shunday qaltis davrda din yo‘liga yaqin bo‘lgan insonning zaifasiga yordam beradi. Bu voqea orqali biz qiyin davr bo‘lishiga ham qaramasdan o‘zbeklarning vijdonli, imonli va halol bo‘lishiga intilganligini bilsak bo‘ladi. Romandagi qahramonlar o‘zlarining xarakteri, dunyoqarashi va oldiga qo‘ygan maqsadlari bilan qiyin davralarni bosib o‘tishi tasvirlangan.

Tog‘ay Murodning “Ot kishnagan oqshom” qissasi ham juda ko‘p o‘quvchilar tomonidan sevib o‘qiladigan hayotiy voqealar ko‘rinishi tasvirlangan desak bo‘ladi. Qissadagi asosiy qahramon Ziyodulla ismli inson bo‘lib, u insondagi bo‘lishi mumkin bo‘lgan vaziyatlar jamlanmasi bilan aks etgandir. Ziyodulla oddiy o‘zbekning sodda yigitlaridan biri. O‘ziga ishonadi, odamlarni hazil gaplarini ham, kattami – kichikmi hammani gapini to‘g‘ri tushunadigan, vijdonli, ko‘pkarini ashaddiy ishtirokchilaridan. Ushbu qissani o‘qigan odam zamonning charxpalagi bilan o‘zini tirikchiligini qilayotgan odam bilan bir vaqtda, otlar xaqida va ko‘pkari singari milliy o‘yinlarimiz haqida kerakli ma‘lumotlarni bilib olish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Misol uchun, ko‘pkari o‘yini boshlanishidan avval jarchi tomonidan o‘yinning qoidalari: chil bog‘lamaslik, biri-birini so‘kmaslik, bir-biriga qamchi urmaslik, yiqilgan chavondozning ustiga ot haydamaslik kabi talablar hozirgi vaqtda ham o‘z o‘rni bor. Qissada Ziyodullani yoshligidan boshlab uning katta bo‘lguniga qadar bosib o‘tgan yo‘llari, qay tarzda kal bo‘lib qolgani bosh kiyimini yechgani uchun o‘qituvchidan jahli chiqqani, o‘zi muhabbat qo‘ygan Momoxonga uylanishi, ot sotib olishi, ko‘pkarilarda ishtirok etishi yoritilgan. Yana bir voqelardan biri kolxoz raisi qishloqdagi otlarni birma-bir yig‘ib olib go‘shatga topshirayotgan paytda Ziyodulla o‘z otini bermaslik uchun tog‘ning g‘orlariga yashirib kelishi, kolxoz raisi bilan tortishuv jarayonlari oddiy o‘zbek so‘zlari misolida yoritilb berishi o‘qigan insonga kulgi bilan bir vaqtda teran ma‘no olib kiradi. Bu voqelar bilan hamnafas bo‘lishlik har bir o‘zbek yigitini qiziqtirmasdan qolmaydi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Yuqoridagi tilga olib o‘tilgan ikki kitobning asosiy maqsadlaridan biri o‘quvchilarga insonning hayoti, uning yashashdan maqsadi hamda zamonning chaxpalagini insonga ta‘siri tushuntirib berishdan iboratdir. “Bu dunyoda o‘lib bo‘lmaydi” romanidagi bironing zaifasiga qiyin davr bo‘lishiga qaramasdan qo‘lidan kelganicha yordam berishi. Bu bilan Botir firqa sobiq ittifoqqa xizmat qilsada lekin Allohni tan olishi, vijdoni borligini ko‘rsatib beruvchi holatlardan biridir. Bu esa hozirgi vaqtda odamlarni har qanday qiyinchilikni zarur iroda va imoni bilan yengib o‘tishiga ishonchini mustahkamlaydi. 1933-yilgi voqealar davrida Moskvadan kelgan NKVD xodimlari Botir firqaga ochlikdan vafot etayotgan insonlarni sovet ittifoqini sharmanda qilishda ayblab, nimaga ular och qoladi bizlar och emasmiz deyishini o‘zi o‘sha vaqtlardagi rahbarlarni qanchalik adolatsizlik, bilan xalqni boshqarganligi, xalqni ichiga kirmasligi bilan ularni dardini tushunmasliklarini ko‘rsatib beradi. Oddiygina o‘y yetarli bo‘lgan javob: qanday qilib NKVD va davlat rahbarlari och qoladi. Chunki ularga birinchi navbatda moddiy yordam berilsa. Xalqni och qolishiga sabab uni dehqonchiligi yaxshi bo‘lsa davlat undan soliq olib yashayveradi. Sodda qilib aytganda, xalqni ishi yurishmay qolsa o‘zini – o‘zi eplashi kerak degan tushunchalar bilan Davlat boshqarilgan. Hozirgi

vaqtda esa inson omili birinchi o'ringa qo'yilgan siyosatni qanchalik to'g'riligini, bu esa ajdodlarimiz orzu qilgan kunlar ekanligini tushunib etish uchun yoshlarga kerakli ma'lumot bo'lishi tabiiydir. Yuqorida tilga olingan NKVD xodimari Botir firqaga ochlikni yo'qotishni g'ayritabiiy usulini aytishadi. Bu usul och qolgan va ochlikdan o'lgan odamlarni chekkaroq biron-bir chuqurlikkani yoki hovuzga oborib ustilaridan tuproq tortib tiriklayin ko'mib yubirishdir. Chunki NKVD xodimlari Ukrainadagi ocharchilik holatlarini ham shu usulda yo'qotishgan va bu qilgan jirkanch ishlari bilan faxrlanib yurishardi. Buni eshitgan Botir firqa ichidan zil ketadi va rahbariyatdan so'rashlikni aytganida NKVD xodimi buni Moskva bilishini, bu bo'yicha buyruq ham borligini aytishadi. Botir firqa gap bilan bo'lib avval e'tibor bermagani, so'ng yaxshilab hovuz tagiga qarasa ikkita qora narsa taxlanganini ko'radi. Pastga tushib qarasa, o'zining hamqishlog'i Ashir momo va Chori bobo ekanligini tanib qo'llarini ko'tarib duo o'qimoqchi bo'ladi. Va ortida NKVD xodimlari borligi esiga tushib qo'lini tushirdi. So'ng ichida duo o'qidi va qur'on o'qidi. Ushbu voqealardan ko'rib turibmizki, Botir firqani yomon odam deb xulosa qilib bo'lmaydi, u diyonati bor iymonli inson. Mana shu voqeadan biroz o'tib NKVDchilar mashina bilan kelishadi. Mashinadan o'ralgan yana jasadlarni olib kelib hovuzga tashlashadi. Bu safargi jasadlar yuqoridagi tilga olingan Zaynab bilan uning qizini ko'radi. Ularni shu darajad och qolib ketganligi va hozirda tirikligini ko'rib NKVD xodimlaridan ularni uyiga olib ketishga ruxsat so'raydi. NKVD xodimlarini mazahlariga va tahqirlashlariga qaramasdan ularni qutqarib qoladi. Shundan so'ng Mirzakarimboyning zaifasi va zuriyodiga 2 donadan kulcha berib turish evaziga olib ketadi. Vaqtlar o'tishi bilan Obod qizi Dilyaning iltimosi bilan Botir firqaga shoir Madiyevni ishga olishi uchun yordam so'raydi. Shu vaqtda Botir firqani xayoliga quyidagi gaplar keladi Obod qizi Dilyani yomon yo'lga kirganligini ochiqchasiga sigaret chekishi va boshqa noto'g'ri amallarini bilarmikan deb o'ylaydi. Shoirmi ishga oladi. U ishlash davomida rahbarlar tomonidan "kechikish" [1, 58] so'zini noto'g'ri talqini qilishi bilan jinnixonaga tiqiladi. Shu payt ham Botir firqa Madiyevni jinnixonadan chiqarib olish uchun qo'ldan kelgan barcha harakatlarni qiladi, shifoxona boshliqlariga iltimos qiladi. O'sha davrlarning qanchalik shafqatsiz ekanligini oddiy haqiqatni gapirgani uchun rus generalini jinnixonaga tiqilganligini ko'rgan Botir firqa hayron qoladi. Bu voqealar esa yana bir bor Botir firqani insoniylik sifatlarini yuksakligidan dalolatdir. 1956-yil O'zbekistonga televizor kirib keldi. Jumladan, xotin qizlar qo'mitasiga atalgan televizor keldi. Botir firqa kelishib Obod Mirzaxo'jayevaga berishadigan bo'lishdi. Xa o'sha Zaynabning qizi Obodga. Uning uyiga televizorni olib borib berib 8-mart bilan tabriklashdi va bazm tashkil etildi. Shunda birdan to'polon bo'lib, bir kishini noroziligi bilindi. Nrozi bo'lgan ayol Zaynab momo yedi. Zaynab momo televizordagi chiqayotgan diktor meni ko'rib qoladi va men begona erkakga ko'rinaman deb janjal qiladi. Buni eshitgan faollar kulishadi. Shundan so'ng Botir firqa telvizorning ichidagi diktor hammaga qarab gapirgishini bu yerdagilarni ko'rmasligini tushuntirib beradi.

Oradan vaqtlar o'tib Brejnev davri tugagandan so'ng SSSR quladi. Davlatlar mustaqillik uchun qadam qo'ya boshlashdi. Hamma joydan qayta quruvchilar paydo bo'ladi. Shunda televizorlarda va axborot tarqatuvchi vositalarning obyektida avvalgi tuzum yomonligi, ko'pchilik buni tushunib etmaganligi jar solinadi. Bu esa Botir firqaga o'zgacha ta'sir qildi. Eng asosiy holatlardan biri aynan o'rtaga chiqib gapiruvchi, xalqqa o'zini ta'sirini o'tkazuvchi shaxslar Dilya bilan Madiyev edi. Ularning aytishicha, avvalgi tuzum ularni ko'r qilgani, ko'p narsalarni tushunib yetmaganligi, namoz o'qishga ham imkon yo'qligini pesh qilishadi. Avvalgi tuzumdagi ishlaganlar qizillar bo'lib ular hammaga yomonlikni ravo ko'rishganligini targ'ib qilishadi. Bu esa Botir firqaga qattiq ta'sir qiladi va o'zining dunyoqarashi bilan kecha kim edinglar bugun kim bo'lding degan g'oya bilan yuradi. Lekin baribir qayta quruvchilarning harakatlari unga tinchlik bermaydi, hattoki tezroq o'lishni o'ylaydi. Bu voqealarga asta – sekinlik bilan Botir firqa ham moslashadi. O'zi qurgan binolar va ekkani daraxtlarni kesililishini ko'rdi. Ichi achidi. Yig'ladi ham.

Romandagi ushbu voqealar aynan sobiq ittifoq davrida yashagan va rahbarlik qilgan odamlarni hammasi ham vijdonsiz deb bo'lmasligini, o'sha vaqtdagi siyosiy vaziyat tufayli erkinlikni imkoni bo'lmaganligi, ularning orasidagi insonlarni ham ko'pdan-ko'p yaxshi ishlarni amalga oshirganligini e'tirof etish kerakligini o'quvchilarga anglatadi.

"Ot kishnagan oqshom" haqiqiy sof jaydari tilda yozilgan qissadir. Bu o'zbek xarakterini Ziyodullaning xarakteri misolida ochib berilishidir. Ziyodullaning otini surishtirib kelgandagi jumlar bunga isbotdir. "Darvozani ochib qaradim. Ostonada raisimiz, undan keyin do'ppili odam bilan ikkita militsioner bo'ldi. Raisimiz boshi bilan do'ppili ishora qildi. – Bu kishi rayon vakili, qishloq xo'jaligi boshqarmasidan, - dedi. – Binoyi, binoyi. Qani ichkarilangizlar. Do'ppili odam ichariladi.

Ketidan boshqalari ergashdi. Kattalarga sinchiklar-sinchiklab qaradim. Do'ppili katta mendayin bir kal bo'ldi. O'zimizdan yekan dedim. Kal katta tevarakka alangladi. – Ot qani – dedi. – qanday ot? – dedim. – Ot qanday bo'ladi? To'rt oyoqli ikki quloqli otda. – Menda unday ot yo'q, katta. Kaldan taroq so'rama, deydilar. Siz bo'lsa ot so'rab o'tiribsiz. – Top, top kallani garang qilma! – Menda ot nima qiladi, katta. Kal barmoqlarini o'ynatib militsionerga ishora qildi. – Titinglar dedi. Militsioner bilakdey fonarini yoqdi. Molxona, otxonalarni qarab keldi. – O'zi yo'q tezagi bor ekan – dedi. Kal katta menga yuzlandi. – Ana tezagi bor deyapti-yu? – dedi. – Men sizga aytsam katta, eshikli uy, mehmonlarni oti tezak tashlagandir-da. Tashlama deb bo'lmaydi, mehmon ot.” [2,45]. Mana shu so'zlashuvlardan ko'rishimiz mumkinki, ushbu qissada o'zbek xalqini tabiiy gapirishi ochib berilgan. Bu hozirgi kundagi yozuvchilarga o'rnak bo'ladigan qobiliyatlardandir. Yana bir qissada ko'tarilgan fazilatlaridan biri tarlon ot bilan inson o'rtasidagi yaxshi munosabatlar to'plamidir. Ziyodulla har doim otini tushunishga, uni nima xohlashi va uni qadrlagan holda ish yuritishga harat qilgan. Misol uchun, otni qorni to'q bo'lgan hollarda ko'pkariga qo'yimaslik, otni terlatgan holda suv ichirmaslik, uning kayfiyatini ham tushunish kabi holatlar yoritilgandir. Bu voqealar esa hozirgi kunda ham chavondoqlik bilan o'z faoliyatini olib boruvchilarga ,albatta, as qotadigan maslahatlar to'plamidir. Qissada keladigan voqelardan biri Ziyodullani bozor aylanganidan so'ng choponli odam bilan o'g'ri yigitlarni urishishidagi ularga yordam beraman deb o'ziga ziyon etishi bilan yakunlanadi. O'sha vaqtda militsionerlar ham ushbu voqeani ko'radi lekin meni hududim emas deb urishayotgan odamlarpga bee'tibor bo'lashadi. Ziyodullani esa ushbu holatga befarq bo'lmasdan yordamga shoshadi. Bu xislatlar har bir o'zbek o'g'lonlarida tarkib topgan yuksak fazilatlardandir. Qissani yana bir yoritilgan jihatlaridan biri Ziyodulla ot sotib olgandan so'nggi voqelarda ko'rinadi. “El menga burnini jiyirib qaradi, otimgada burnini jiyirib qaradi. El og'zini ushlab kuldi, piq-piq kuldi, qo'li bilan ko'rmatib kuldi, pana-panalardan kuldi. Bildim, el, Ziyodulla kal, otangni ko'rdim – ahmadi forig', onangni ko'rdim to'voni yoriq, ko'rpangga qarab oyoq uzat dedi. O'zing bir sag'ir bo'lsang, senga kim qo'yibdi otni, dedi. Kalta eshak ham bo'ladi, dedi” [2, 9]. Xa ushbu gaplar har bir inson xayolidan kechishi mumkun bo'lgan jarayondir. Har kim biror ish qilishidan avval ,albatta, o'zini ishini odamlar nazari bilan qarab ko'radi. Uni odamlar qanday tushunishini xayolan tasavvur etadi. Mana bu jarayonlar hozirgi kunda ham har bir insonda kechishi mumkin bo'lgan o'ylardir. Demak, inson o'z nuqtayi nazaridan ijobiy ishlarga safarbar bo'ladigan, to'g'ri deb bilgan amallarni amalga oshirishi to'g'ridir. Ya'ni aytmoqchi bo'lganimiz el og'ziga elak tutib bo'lmas qabilida ish ham ko'rish lozim.

XULOSA

Xulosa o'rnida aytadigan bo'lsak, Tog'ay Murodning har bir intellekt mahsuli teran ma'nosi, dolzarbligi, har bir inson uchun foydali jihatlari ko'pligi bilan o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. Yuqoridagi roman va qissalaridagi qahramonlarni hayotiy kechinmalari, ularni bajargan to'g'ri amallari o'quvchini chuqur idrok etishga olib boradi. Botir firqa nima uchun sobiq ittifoqda rahbarlik lavozimlarida ishlab, nafaqaxo'r bo'lib kunini ko'rib yurgan kezlarda qayta quruvchilarning da'vati bilan ittifoqdan qolgan va olgan esdaliklarni yerga tashlamadi? Chunki Botir firqa nonko'rlik qilgisi kelmadi. Sababi u olgan orden va partiya biletlari halol xizmatlari beligisi sifatida qabul qilgan. U astoydil, vijdonan, insonlarga yordam berish bilan vataniga xizmat qilgan. Qanchadan-qancha binolar, maktablar, teatrlar qurilishga, daraxtalarni ekilishiga sidqidildan mehnat qilgan. Olgan mukofotlari bilan mexnatlarim evaziga taqdirlanganman deb ko'krak kerib yurgan. Har qanday inson ham o'z mehnati uchun rag'batlantirilsa uni yana ishlagisi, sidqidildan mehnat qilgisi keladi. Mukofotni esa osongina tashlab yuborolmaydi. Botir firqa kabi mehnatni vijdonan bajarish hozirgi kunda ham hamma uchun kerakli bo'lgan sobitlikdir. Ziyodilla esa haqiqiy o'zbek kishisi sifatida gavdalangan bo'lib, u hammaning ham yoshligida bo'ladigan hodisalar, uylanishdan avval uyg'ongan muhabbat, otlarga bo'lgan muhabbat, er yigitni o'yinlaridan biri bo'lgan ko'pkarida ishtirok etish va odamlarning fikrlariga munosabati yoritilishi bilan ushbu qissaning dolzarbligini belgilagan. Tog'ay Murodning kitoblarini o'qigan har bir kishi birinchi navbatda o'zbekning fe'l-atvorini, vijdonli ekanligini, bir-biri bilan ahil-inoqligini tasviri bilan xalqimizni yuksak fazilatlarini ko'rishi mumkin.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Тоғай М – Т.: Шарқ, 2011. – bet 196.

2. Тоғай М – Т.: “Зиё нашр”, 2019. – бет 112.
3. Бобохонов М. Ҳозирги ўзбек қиссачилигида психологизм: Фил. Фанлари номзоди...диссертацияси. – Тошкент, 2012.
4. Дўстмуҳаммад Х. Қисса. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2021.
5. Расулов А. Бадийлик – безавол янгилик. – Тошкент: Шарқ, 2007.
6. Солижонов Й. XX асрнинг 80-90-йиллари ўзбек насрида бадий нутқ поэтикаси: Филол. Фанлари докт. ... дисс. – Тошкент, 2002.
7. Тулабоева Р. Худойберди Тўхтабоев романларида бадий психологизм: Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси. – Тошкент, 2019.
8. Шўхрат. Машраб. Роман // Танланган асарлар. – Тошкент: “SHARQ” нашриёти матбаа акциядорлик компанияси, 2018.
9. Дўсқораев Б. Ўзбек насрида Машраб тимсолини яратиш тажрибаси ҳақида мунозаралар // Мустақиллик даври адабиёти. – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги нашриёт – матбаа ижодий уйи, 2006.
10. Бегматов Х. Девона Машраб. Роман. – Тошкент: “Шарқ” нашриёти – матбаа акциядорлик компанияси Бош таҳририяти, 2005.